

## DIQQAT E'LON

Siz badiiy tarjimaga va adabiyotga qiziqasizmi?

Bo'sh vaqtlaringizda nemis tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan nemis tiliga tarjimalar qilasizmi?

Unda Toshkentdagi Gyote-Institut qoshida tashkil etilayotgan "Badiiy tarjima" mutarjimlik maktabi aynan siz uchun!

Ushbu maktab a'zosi sifatida quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lasiz:

- Badiiy tarjima va zamonaviy nemis va nemiszabon adabiyot haqidagi bilimlaringizni kengaytirasiz;
- havaskor tarjimondan professional mutarjimonga aylanasiz;
- badiiy tarjima borasida xalqaro grant va stepindiyalar sohibi bo'la olasiz;
- nafaqat adabiy iqtidoringiz balki tajimashunoslik hamda adabiyotshunoslikdagi ilmiy layoqatingizni shakllantirasiz;
- va albatta ma'naviy hamda moddiy rag'batlantirilasiz!

Imkoniyatdan foydalanib qoling!

A'zolik o'rinlari cheklangan.

Yosh mutarjimlar uchun mashhur tarjimon, nafaqat yurtimizdagi, balki bir qancha xalqaro grantlar sohibasi, ijodkor, filologiya yo'nalishi bo'yicha falsafa fanlari doktori Hafiza Kuchkarova.

Bu siz uchun eng yaxshi imkoniyat!

**Murojaat uchun: 91-641-24-61**

## **Ma'lumot uchun filologiya yo'nalishi bo'yicha falsafa fanlari doktori Hafiza**

### **Kuchkarovanning erishgan yutuqlari:**

Kuchkarova H. Sh. quyidagi xalqaro grant va stipendiyalar sovrindori hisoblanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" tanlovi g'olibi (2005 y.);
2. "Iste'dod" grantiga ko'ra 2006 yil fevral-mart oylarida "Veb dizayn" bo'yicha Yangi Dehlida kursni tugatdi (Hindiston);
3. Hindistonning "ITEC" tanlovi g'olibi sifatida 2006 yil iyun-sentyabr oylarida "Mutaxassislar uchun ingliz tili" kursida tahsil olgan (Haydarobod, Hindiston);
4. Toshkentdagi Gyote instituti stipendiyasi sohibasi sifatida 2008 yilda Gyottingen shahrida "Mutaxassislar uchun nemis tili" kursini muvaffaqiyatli tugatdi (Germaniya);
5. Berlin adabiy kollokviumining dunyo bo'yicha o'tkazgan xalqaro tanlovi g'olibi sifatida 2009 yil mart oyida Berlinda o'tkazilgan xalqaro badiiy tarjimonlar konferentsiyasi ishtirokchisi (Berlin, Germaniya);
6. Berlin adabiy kollokviumining xalqaro badiiy tarjimonlar granti sovrindori (2009 yil avgust, Berlin);
7. Looren Tarjimonlar uyi stipendiyasi sohibasi (2011 yil iyul-avgust, Shveytsariya);
8. Shveytsariya Pro Helvitia jamg'armasining xalqaro badiiy tarjimonlar uchun granti sovrindori (2016 yil mart-aprel);
9. Shveytsariya xalqaro Tarjimonlar uyi stipendiyasi sovrindori (2017 yil, fevral-mart, 2018 yilda);
10. Germaniyadagi Yevropa Xalqaro tarjimonlar assotsiatsiyasi hamda DAAD (Nemis akademik almashuv xizmati) granti sohibasi (2017 yil noyabr)
11. Avstriya hukumatining "2018 yilning eng yaxshi tarjimoni" xalqaro mukofoti sohibasi.

Bundan tashqari, Hafiza Kuchkarova Shveysariya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarni mustahkamlashga ham o'z hissasini qo'shmoqda. 2016 yil mart, 2017 yil avgust, 2018, 2022 yil iyul va avgust oylarida Shveysariyaning turli shaharlarida "O'zbekiston san'ati, madaniyati va adabiyoti" kunlarining Hafiza Kuchkarova tomonidan o'tkazilishi tahsinga sazovordir.

Kuchkarova H.Sh. 5 ta o'quv qo'llanma, 50 dan ziyod ilmiy maqolalar, bitta lug'at va bitta nemischa-o'zbekcha so'zlashgich hamda 10 dan ziyod tarjima asarlar hamda –"Dil izhori", "Qadr tarozusi", "Afro'zona xo'rsiniqlar" kitoblari muallifidir.